

## SOLIQ TIZIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ORQALI KO'RSATILAYOTGAN XIZMATLAR VA ULARNING AHAMIYATI

Uzaqov Aziz To'lqin o'g'li

TKTI, Qo'shma ta'lim dasturlari bo'lim boshlig'i.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13926210>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada soliq tizimida axborot texnologiyalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar, ularning turlari, soliq tizimidagi interaktiv xizmatlar va ahamiyati, yuridik va jismoniy shaxslarga foydasi va davlat budgetini takomillashtirishdagi o'rni so'z yuritiladi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari soliq to'lovchilarga qulay va tezkor xizmat ko'rsatish, soliq idoralari faoliyatini takomillashtirish va xatoliklarni kamaytirish uchun muhim ahmiyat kasb etmoqda.

Maqolada bu texnologiyalar yordamida ko'rsatiladigan xizmatlar, ularning soliq to'lovchilarga va soliq idoralari faoliyatiga bo'lgan ijobiy ta'siri haqida batafsil ma'lumot berilgan. Soliq tizimida qo'llanilayotgan axborot texnologiyalari xizmatlari orasida onlayn soliq deklaratsiyalarini topshirish, elektron hisob-faktura tizimi, soliq to'lovchilar shaxsiy kabineti va boshqa interaktiv xizmatlar ajralib turadi. Ushbu texnologiyalar soliq to'lovchilar uchun vaqt va mablag'ni tejash bilan birga, soliq organlariga real vaqtda ma'lumot olish va qayta ishslash imkonini beradi. Maqolada axborot texnologiyalari xizmatlarining samaradorligi, ular orqali qog'ozsiz ishslash imkoniyatlari, va ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash masalalari ham muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** Soliq, axborot-komunikatsiya texnologiyalari, axborot texnologiyalari, interaktiv xizmatlar, soliq xizmati, soliq organlari, soliq tizimi, Davlat soliq xizmati organlari, Davlat soliq qo'mitasi, elektron davlat xizmatlari.

### SERVICES PROVIDED THROUGH INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE TAX SYSTEM AND THEIR SIGNIFICANCE

**Abstract.** This article discusses the services provided in the tax system through information technologies, their types, interactive services in the tax system and their importance, benefits to legal entities and individuals, and their role in improving the state budget. Today, information technologies are becoming important for providing convenient and fast service to taxpayers, improving the activities of tax authorities and reducing errors.

The article provides detailed information about the services provided with the help of these technologies, their positive impact on taxpayers and the activities of tax authorities. Among the information technology services used in the tax system, online tax declaration submission, electronic invoicing system, personal office of taxpayers and other interactive services are distinguished. These technologies allow tax authorities to receive and process information in real time, while saving time and money for taxpayers. The article also discusses the effectiveness of information technology services, the possibilities of paperless work through them, and issues of data security.

**Keywords:** Tax, information and communication technologies, information technologies, interactive services, tax service, tax authorities, tax system, State tax service authorities, State tax committee, electronic state services.

## УСЛУГИ, ПРЕДОСТАВЛЯЕМЫЕ С ПОМОЩЬЮ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЕ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются услуги, предоставляемые в налоговой системе посредством информационных технологий, их виды, интерактивные услуги и их значение в налоговой системе, льготы для юридических и физических лиц, а также их роль в совершенствовании государственного бюджета. Сегодня информационные технологии приобретают важное значение для обеспечения удобного и быстрого обслуживания налогоплательщиков, улучшения деятельности налоговых органов и снижения ошибок.

В статье представлена подробная информация об услугах, предоставляемых с помощью этих технологий, их положительном влиянии на налогоплательщиков и деятельность налоговых органов. Среди информационных технологий, используемых в налоговой системе, выделяют онлайн-подачу налоговых деклараций, систему электронного выставления счетов, личный кабинет налогоплательщиков и другие интерактивные сервисы. Эти технологии позволяют налоговым органам получать и обрабатывать информацию в режиме реального времени, экономя при этом время и деньги налогоплательщиков. Также в статье рассматривается эффективность услуг информационных технологий, возможности безбумажной работы через них, вопросы безопасности данных.

**Ключевые слова:** Налоги, информационно-коммуникационные технологии, информационные технологии, интерактивные услуги, налоговая служба, налоговые органы, налоговая система, органы государственной налоговой службы, Государственный налоговый комитет, электронные государственные услуги.

### KIRISH

Bugungi kunda soliq tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg‘or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish soliq to‘lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko‘maklashish hamda soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish, asosiysi, iqtisodiyotda xufiyona faoliyatni qisqartirish, shaffoflik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Soliq tizimida axborot texnologiyalarining vazifasi soliq xizmati organlari oldiga qo‘ylgan masalalarni hal etish uchun to‘langan soliqlar va yig‘imlar tushumi haqida ma’lumotlar statistikasini ishlab chiqilgan maxsus algoritmlar asosida olib borish va tegishli organlarga uzatish, tushumlar dinamikasini tahlil qilish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tahliliy ma’lumotlarni berish, tahliliy ma’lumotlar asosida hisobotlar tayyorlash masalalarini yechishni ta’minlashdan iborat.

Shu bois, ushbu magistrlik dissertatsiya ishida soliq tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o‘rni, ularning bajaradigan vazifalari va o‘ziga xos xususiyatlari, soliq tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo‘llashdagi imkoniyatlar va muammolar atroflicha bayon etilgan.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlar tushumini hisobga olish hamda nazorat qilish darajasini oshirishga, soliq tushumlarining qo'shimcha manbalarini aniqlash va soliq to'lashdan bo'yin tov lashning oldini olishga, shuningdek soliq to'lovchilar uchun ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlar turini kengaytirish hamda sifatini oshirishga yo'naltirilgan muammolar va ularni o'rganish masalalari ushbu magistrlik dissertatsiyada atroflicha tahlil qilingan va soliq tizimida zamонавиу ахборот-комунікатсиya texnologiyalarini samarali qo'llashning istiqboldagi yo'nalishlari belgilab berilgan.

Respublikamizda so'ngi yillarda soliq islohotlariga alohida e'tibor qaratilib, soliq organlari faoliyatini tubdan isloh qilish, soliq qonunchiligini soddalashtirish va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tendentsiyasi hamda soliq organlarining ishlarini axborot texnologiyalari orqali bajarish muntazam amalga oshirilib kelinmoqda.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan so'ngi paytlarda qabul qilinayotgan Farmon va qarorlar soliq siyosatini erkinlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy sohani rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirish, soliq xizmatlaini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirishga qaratilayotganligi alohida ahamiyatga ega.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini kompyuterlashtirish va axborotlashtirish, malakali xodimlarni tayyorlash, kompyuter jihozlari, dasturiy mahsullar bilan ta'minlash hamda zamонавиу талабидан kelib chiqib, soliq idoralarida jamlangan hisobotlarni elektron ko'rinishda quyi soliq xizmati organlaridan Davlat soliq qo'mitasiga uzatish, Davlat soliq qo'mitasi tomonidan beriladigan operativ topshiriqlarni davlat soliq boshqarmalariga va davlat soliq inspeksiyalariga to'g'ridan – to'g'ri uzatish masalalari, shu bilan birga soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatga olish, ularni davlat budgeti oldidagi majburiyatlarining bajarilishi haqidagi ma'lumotlarni yagona soliq to'lovchilar bazasida saqlash va boshqa masalalar dolzarb masalaga aylandi.

O'zbekistonlik olimlar R.A. Dadabayeva, N. X. Shoaxmedova, L.T. Ibragimova, Sh.T. Nasridinova, Sh.T. Ermatovlarning fikriga ko'ra yuqoridaq masalalarni yechishda avvalo Davlat soliq qo'mitasi soliq xizmati idoralarini zamонавиу kompyuter texnologiyalari orqali bir-biri bilan bog`lash va yagona axborotlar bazasini takomillashtirish maqsadida ma'lumotlarga ishlov berishning yagona kompyuter tizimini ishlab chiqish va Davlat soliq qo'mitasining barcha bo'linmalarida lokal axborot-hisoblash tarmoqlarini barpo etishni maqsad qilib qo'ydi.

Shu bois Davlat soliq xizmati organlarida zamонавиу axborot texnologiyalari asosida axborot tizimini yaratishga asos solindi va uning huquqiy bazasi yaratildi.

Soliq tizimida axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-amaliy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida keng tadqiq etilgan. Ulardan Jonas Blume, Maja Bott, Vikram Chand, Svetislav Kostic, Ariene Reis, Guillermo Jimenez, Anton Kamenov, Aqib Aslam va Alpa Shah va boshqa olimlarning ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Jonas Blume va Maja Bott soliq tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha afzalliklari va kamchiliklari, ulardan foydalanish natijalari ko'rib chiqilgan va umumiy yondashuvni keltirishgan (1-rasm):



### 1-rasm. Soliq ma'muriyatining axborot texnologiya tizimida zarur bo'lgan funksionallik<sup>1</sup>

Jonas Blume va Maja Bottning fikricha, soliq tizmidagi axborotlar oqimini boshqarish tez-tez qo'llaniladigan va mohiyatiga ko'ra, barcha soliq tizimlarida bir xil ishlar, ya'ni soliq to'lovchilarni aniqlashlari, kimdan qarzdorligini bilishlari uchun ma'lumotlarni qayta ishlashlari kerak. Soliq ma'muriyatining asosiy axborot texnologiya tizimlaridagi odatiy funksionallik soliq ma'muriyatining axborot texnologiya tizimida zarur bo'lgan funksionallikda namoyon bo'ladi.

#### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida soliq tizimida axborot texnologiyalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar va ularning ahamiyati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rnatildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

#### TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda soliq xizmati organlarida axborot tizimlari va texnologiyalarini joriy etishning maqsad va vazifalari soliq xizmati organlari bajaradigan funksiyalar, vazifalar, bir xildagi operatsiyalarni yangi dasturlar bilan imkonli boricha kengroq qamrab olishni ta'minlash hisoblanadi. Zero bu dasturlar soliq ma'lumotlariga ishlov berish jarayonini jadallashtirish, soliq inspektorlari ishining samaradorligini oshirish, ularning ishidagi bir tusdagi hisob-kitob va oxiri yo'q yozuvlar bilan ishlash yukini kompyuter statistikasining zamonaviy vositalaridan foydalangan holda ijodiy tahlil qilish sohasiga chiqish imkonini beradi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda "Soliq-servis" davlat unitar korxonasini soliq to'lovchilarga o'zning xizmlarini ko'rsatib kelmoqda. "Soliq-servis" davlat unitar korxonasi

<sup>1</sup> Jonas Blume, Maja Bott "Information Technology in Tax Administration in Developing Countries", - M: KfW Development Bank, 2021

(DUK)ning asosiy vazifasi soliq to'lovchilarga ularning soliq majburiyatlarini bajarilishida xizmat ko'rsatishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida "Soliq-servis" DUKning soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda texnik jihatdan ko'maklashish, shuningdek, hisobotlar va deklaratsiyalarni qabul qilish bo'yicha soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish yuzasidan davlat soliq xizmati organlariga amaliy yordam berish yo'nalishida hududiy markazlari tashkil etilgan.<sup>2</sup>

"Soliq-servis" DUK strukturasi markaziy apparatdan, 14 ta viloyat markazlaridan hamda 205 ta hududiy bo'linmalardan tashkil topgan.

Bugungi kunda davlat soliq xizmati organlari tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga turli xil interaktiv xizmatlar ko'rsatilib kelinmoqda. Bugungi kunda Davlat soliq qo'mitasining «Elektron davlat xizmatlari - my.soliq.uz» portalı orqali 76 turdagı elektron davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda (2-rasm):

The screenshot shows the homepage of the my.soliq.uz website. At the top, there is a header with the logo of the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan, the text 'ЭЛЕКТРОН СОЛИҚ ХИЗМАТЛАРИ', and the subtitle 'Солик органларининг электрон давлат хизматлари портали'. Below the header, there is a search bar and a navigation menu with links like 'Портал хақида', 'Мақолалар', 'ДСҚ сайти', 'ЭРИ хақида', 'Статистика', 'Сўровлар', 'Алоқа', 'Хизматларни излаш', and 'Излаш'. The main content area is divided into several sections: 'Шахсий кабинетлар' (with icons for personal accounts), 'Электрон давлат хизматлари' (with a count of 45), 'Янги имкониятлар' (with a count of 41), 'Фойдаланувчи кутубхонаси' (with a count of 14), 'Хизматлар йўналиши' (with a count of 10), 'Интерактив хизматлар' (with a count of 20), 'Ахборот хизматлар' (with a count of 25), and 'Тест синовдаги хизматлар' (with a count of 31). Each section contains a list of specific services or documents.

**2-rasm. Davlat soliq qo'mitasining «Elektron davlat xizmatlari – my.soliq.uz» portalidagi elektron xizmatlar<sup>3</sup>**

Bugungi kunda elektron davlat xizmatlaridan 25 tasi — axborot davlat xizmatlari, 20 tasi — interaktiv, 31 tasi — test sinovdagi xizmatlari tarkibiga kiradi.

Portalda yuridik, jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirdorlar uchun soliq to'lovchining «shaxsiy kabinet»lari joriy etilgan. O'zlarining «shaxsiy kabinet»lariga kirib, Davlat soliq qo'mitasining «Elektron davlat xizmatlari – my.soliq.uz» portalidagi elektron xizmatlar foydalanishlari mumkin (3-rasm):

<sup>2</sup> Davlat soliq qo'mitasining www.soliq.uz rasmiy veb-saytidan olingan

<sup>3</sup> Davlat soliq qo'mitasining «Elektron davlat xizmatlari — my.soliq.uz» portalidan olindi: <https://my.soliq.uz/>

The screenshot shows the homepage of the my.soliq.uz website. On the left, there's a sidebar with three main sections: 'Shaxsiy kabinetlар' (Personal Cabinet), 'Электрон давлат хизматлари' (Electronic State Services), and 'Хизматлар йўналиши' (Service Categories). Under 'Shaxsiy kabinetlар', there are three sub-sections: 'Жисмоний шахслар учун' (For business entities), 'Юридик шахслар учун' (For legal entities), and 'Якка тартибдаги тадбиркорлар учун' (For administrative staff). Each sub-section has a 'Хизматлар' (Services) button. Under 'Электрон давлат хизматлари', there are several service categories: 'Солиқчи - тадбиркорга кўмакчи' (Soliqchi - helper for administrative staff), 'Мурожаатларни юбориш' (Submitting applications), 'Рўйхатга олиш' (Registration), and 'Хисоботларни юбориш' (Submitting reports). Each category has a list of sub-services and a 'Контрагент ҳақида маълумот' (Contractor information) link.

**3-rasm. Davlat soliq qo‘mitasining «Elektron davlat xizmatlari – my.soliq.uz» portalidagi yuridik, jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq to‘lovchining “shaxsiy kabinet”i<sup>4</sup>**

Soliq tizimidagi interaktiv xizmatlar orqali soliq to‘lovchining «shaxsiy kabinet» yordamida murojaatlarni yo‘llash, soliq organlarida hisobga turish, nazorat-kassa mashinalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, ortiqcha soliq to‘lovlarini qaytarish to‘g‘risida arizalarni jo‘natish, soliq hisobotlari va deklaratsiyalarini elektron ko‘rinishda yuborish, soliq qarzi mavjud emasligi, soliq organlarida hisobda turganligi (STIR), O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lganligi to‘g‘risida va boshqa ma’lumotnomalarni olish mumkin.

Shu bilan birga, soliq to‘lovchiga hisoblangan, u tomonidan to‘langan summalar, soliq qarzi, ortiqcha to‘lov, penyalar hamda budget va budgetdan tashqari maqsadli jamg‘armalar bilan hisob-kitoblar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham Davlat soliq qo‘mitasining axborot resurslaridan bevosita olish imkoniyati yaratilgan. Bu esa soliq organi xodimi va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi munosabatlarni zamonaviy vositalar yordamida rivojlantirishga, soliq organlariga ortiqcha kelib-ketishlarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Portalda jismoniy va yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun alohida “shaxsiy kabinet” ochilgan bo‘lib, ularga taalluqli xizmatlar maxsus bo‘limlarga joylashtirilgan. Portal orqali soliqlarni mustaqil ravishda hisoblab chiqarish, hisobot va soliq deklaratsiyalari, murojaatlarni yuborish mumkin.

Portalda 14 turdagи elektron ma’lumotnomani mustaqil ravishda shakllantirib, chop etib olsa bo‘ladi. Ular o‘zining unikal raqamiga ega bo‘lib, korxona va tashkilotlarga taqdim etilganda soliq organlarining ma’lumotlar bazasidan haqiqiyligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tekshirib olish imkoniyati mavjud (4-rasm):

<sup>4</sup> Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portalı my.soliq.uz rasmiy veb-saytining <https://my.soliq.uz/main/statistics> havolasidan olindi

The screenshot shows the homepage of the official website for State Services ([my.soliq.uz](https://my.soliq.uz)). The top navigation bar includes links for Russian (Русский), Autoinformator (0 371) 202-32-82, and other language options. Below the header, there's a banner for 'Electronic State Services' (ЭЛЕКТРОН СОЛИҚ ХИЗМАТЛАРИ) with a logo of a stylized bird.

The main content area is divided into several sections:

- Шахсий кабинетлар** (Personal Cabinets):
  - Жисмоний шахслар учун (For personal users): Includes links for Services, Personal Cabinet entry, and Mail.
  - Юридик шахслар учун (For legal entities): Includes links for Services, Personal Cabinet entry, and Mail.
  - Якка тартибдаги тadbirkorlar учун (For administrative units): Includes links for Services, Personal Cabinet entry, and Mail.
  - Шахсий кабинет орқали юбориладиган электрон хужоатлар (Electron documents via personal cabinet): Shows a preview of a document titled 'ДАСТУРЧИЛАРГА АВТОМАЛАШТИРИЛГАН ТИЗИМЛАРНИ БОГЛАШ' (Modernization of regulations).
- Электрон давлат хизматлари** (Electronic State Services):
  - Хизматлар йўналиши (Service delivery): 45 items, including 'Мурожаатларни юбориш' (6 items) and 'Рўйхатга олиш' (8 items).
  - Интерактив хизматлар (Interactive services): 20 items, including 'Ахборот хизматлар' (25 items) and 'Хисоботларни юбориш' (3 items).
  - Янги имкониятлар (New opportunities): 31 items, including 'Ахборот хизматлар' (25 items) and 'Хисоботларни юбориш' (3 items).
  - Фойдаланувчи кутубхонаси (User library): 18 items, including 'Хисоботларни юбориш' (3 items) and 'Солик декларацияларни' (1 item).
- Резюме юбориш** (Summary submission): Shows a preview of a document titled 'РЕЗЮМЕ ЮБОРИШ'.
- ФИКРИНГИЗНИ ҚОЛДИРИНГ** (Share your ideas): Shows a preview of a document titled 'ДАСТУРЧИЛАРГА АВТОМАЛАШТИРИЛГАН ТИЗИМЛАРНИ БОГЛАШ'.
- Ўзаро ҳамкорлик** (Joint cooperation):
  - Сизнинг солик хизматингиз (3 items)
  - Жисмоний шахсларнинг молмук ва ер солиқларини тўлаш тўғрисидаги тўлов хабарнома (3 items)
- Контрагент билан ҳамкорлик** (Cooperation with partners):
  - Солик тўловчилар ҳақидаги маълумотлар (7 items)
  - ККС тўловчилари (7 items)
- Солиқларни ҳисоблаш** (Calculate expenses):
  - Даромад солиғи калькулятори (1 item)
  - Мол-мулк солиғи калькулятори (1 item)
  - Ер солиғи калькулятори (1 item)

#### 4-rasm. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'rsatilayotgan elektron xizmatlar<sup>5</sup>

Soliq to'lovchilar tomonidan davlat soliq xizmati organlari xodimlari bilan muloqotsiz ko'rinishda 2022-yil boshidan my.soliq.uz portalidagi soliq to'lovchilarining «shaxsiy kabinet»lariga jami 783 mingdan ortiq foydalanuvchilar tomonidan 13 mln. dan ortiq murojaatlar bo'lgan. «Shaxsiy kabinet»lar orqali tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 7,5 trln. so'm miqdoridagi soliqlar elektron shaklda to'landi.

Interaktiv xizmatlar ko'rsatilishi bilan soliq to'lovchilarga ancha qulayliklar yaratildi. Quyidagi jadvalda soliq tizimidagi interaktiv xizmatlar bilan tanishishimiz mumkin (1-jadval):

#### 1-jadval

#### Soliq tizimidagi interaktiv xizmatlar ro'yxati<sup>6</sup>

<sup>5</sup> Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portalı my.soliq.uz rasmiy veb-saytining <https://my.soliq.uz/main/statistics> havolasidan olindi

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi soliq.uz rasmiy veb-saytining <https://www.soliq.uz/page/interaktiv-xizmatlar-royxati> havolasidan olindi

Interaktiv xizmatlar	
1	Soliqlarni to‘lash
2	Shaxsiy kabinet orqali elektron o‘zaro munosabatlar
3	Yuridik shaxslarning hisobotlarini yuborish
4	Yakka tartibdagи tadbirkorlarni hisobotlarini yuborish
5	Soliq deklaratsiyalarini yuborish
6	Ortiqcha to‘langan soliq summalarini qaytarish yoki boshqa soliq turiga o‘tkazish
7	Rezidentlik sertifikati
8	Nazorat-kassa mashinalarini ro‘yxatdan o‘tkazish
9	Murojaatlarni yuborish
10	Qabulga yozilish
11	Xodimlarni mol-mulk solig‘ini to‘lash
12	Elektron hisob-fakturalar
13	Ijara shartnomalarni hisobga qo‘yish
14	Nafaqaxo‘rni ishga olish va bo‘shatish
15	Yollangan xodimlarni ro‘yxatda o‘tkazish
16	Onlayn NKM va virtual kassa ma’lumotlari
17	Rezyume yuborish
18	QQSning o‘rni qoplash lozim bo‘lgan summasini qaytarish
19	Tadbirkorga ko‘mak berish bo‘yicha so‘rovnama
20	Soliq imtiyozlaridan foydalanish bo‘yicha murojaat
21	Elektron raqamli imzo kalitlarini ro‘yxatga olish

Endilikda soliq to‘lovchilar va soliq xizmati organlari o‘rtasidagi elektron shaklda amalga oshirilmayotgan jarayonlarni elektron ko‘rinishga o‘tkazish yuzasidan ham amaliy ishlar olib borilmoqda:

- Hozirda butun respublikada elektron hisobvaraq-fakturalarni majburiy tarzda rasmiylashtirishni joriy etish bo‘yicha eksperiment o‘tkazilayotgan bo‘lib, uning natijalari bo‘yicha mazkur mexanizmni butun mamlakat bo‘ylab tizimli ravishda amalga oshirish;
- jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari, soliq solish ob‘yekti vujudga kelganda davlat soliq xizmati organiga hisobga qo‘yish to‘g‘risidagi arizani taqdim etish;
- mamlaktimiz soliq to‘lovchilarining yagona reyestriga kiritilgan yuridik va jismoniy shaxslar – O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari hisobga qo‘yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga hisob ma’lumotlaridagi har qanday o‘zgarishlar haqida ma’lum qilish;
- davlat soliq xizmati organlari tomonidan o‘tkazilayotgan kameral nazorat jarayonida soliq hisobotini to‘ldirishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilganligi yoki taqdim etilgan soliq hisoboti va davlat soliq xizmati organlari ma’lumotlari o‘rtasida aniqlangan ziddiyatlar bo‘yicha tegishli tuzatishlar kiritish bo‘yicha xabardor qilish;
- ortiqcha to‘langan soliq summasini mazkur soliq turi bo‘yicha penya va jarimalarni uzish asosida hisobga olinganda, soliq to‘lovchiga bu haqda xabarnoma berish;
- soliq to‘lovchiga soliq qarzini uzish bo‘yicha talabnoma berish;

- undiruvni soliq to‘lovchining mol-mulkiga qaratish to‘g‘risidagi da’vo arizalarni yuborish;
- soliq qarzini debtor hisobidan undirilishi yuzasidan qarzdorning debtorlari «shaxsiy kabinetiga elektron bildirishnomalar yuborishni va boshqa muloqotlarni elektron shaklga o‘tkazish va soliq to‘lovchining «shaxsiy kabinetiga orqali amalga oshirilgan.

### XULOSA

Xulosa qiladigan bo‘lsak, soliq xizmati organlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning maqsad va vazifalari soliq xizmati organlari bajaradigan funksiyalar, vazifalar, bir xildagi operatsiyalarni yangi dasturlar asosida tartib solish orqali soliq tizimini boshqarish bo‘lib qolmoqda. Soliq xizmati organlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishda bir qancha to‘sqliar mavjud bo‘lganda, ya’ni agar elektr quvvati va barqaror internet aloqasi kabi qattiq infratuzilma yo‘q bo‘lsa yoki axborot texnologiyalari eng yuqori vaqtarda to‘sinqqa uchrab qolsa yoki ishdan chiqsa yoki faqat vaqt-vaqt bilan ishlasa, bu holda soliq organlari tomonidan internetdan foydalanish imkoniyati cheklangan soliq to‘lovchilarga oddiy telefonlar yordamida oflayn deklaratsiya va to‘lovlarni hal qilish kabi murakkabroq texnologiyalardan foydalanishni taklif qilish orqali soliq orgalari xizmatlaridan unumli foydalanish imkoniyalriga erishishlari mumkin.

Yangi axborot texnologiyalarini qo‘llashda, soliq ma’muriyatlarini soliq to‘lovchilar qonunchiligiga rioya qilishni yaxshilashdan iborat asosiy maqsadlarini yodda tutishlari va yangi texnologiyalarni joriy etishlari kerak. Ularning biznes yo‘nalishi va muvofiqlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlaydigan tizimli usullardan foydalanishlari kerak.

Bundan ko‘zlangan maqsad – soliq tizimiga yordam beradigan mustahkam muvofiqlik dasturini yaratish, soliq to‘lovchilarning muvofiqligini maksimal darajada oshirish va tegishli texnologiya bilan samarali qo‘llab-quvvatlangan holda, muvofiqlik xarajatlarini minimallashtirishdan iborat.

### REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiysi to‘g‘risidagi” 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni savarali amalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni
4. O‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "Soliq ma’muriatchiligidagi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 359-tonli qarori
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1730-tonli qarori, 2012 yil 21 mart
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risi”dagi PQ-4996-tonli qarori

7. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Soliq ma’muriyatichiligi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘sishchalar kiritish to‘g’risida”gi O‘RQ-455-sonli qonuni, 2017 yil 18 dekabr
8. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g’risida”gi O‘RQ-443-sonli qonuni, 2017 yil 7 sentyabr
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlarida telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g’risida” gi qarori, 2019 yil 22 may
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi farmoni, 2018 yil 20 fevral
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g’risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017 yil 7 fevral
12. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.
13. Jonas Blume, Maja Bott "Information Technology in Tax Administration in Developing Countries", - M: KfW Development Bank, 2021
14. Vikram Chand, Svetislav Kostic and Ariene Reis "Taxing Artificial Intelligence and Robots", - M: IBFD, 2021
15. Guillermo Jimenez, Niall Mac an tSionnaigh, and Anton Kamenov "Information Technology for Tax Administration ", - A: Deloitte Consulting LLP, 2020
16. Aqib Aslam and Alpa Shah "Taxation in the “Digital Economy”", -M: International Monetary Fund, 2020
17. Jo‘rayev A.S., Berdiyeva U.A. “Soliq ma’murchiligi” o‘quv q’ollanma” - M: Toshkent–2019. S – 201
18. Adewoye, J.O., &Olaoye, C.O. (2021). Usage of information technology to enhance professional productivity among accountants in Ekiti State. International Journal of Accounting and Financial Management Research (IJAFMR), 4(2), 7-18.
19. Г.И.Абаева “Организация интегрированной информационной налоговой системы”. – М: Костанай, 2017. S – 215
20. Basel committee: Consultative Document Principles for the Management and Supervision of Interest Rate Risk. 2003
21. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik.-T.: “Iqtisod-moliya”, 2017 y.
22. Abdullaeva SH.Z. Qulliyev I.M. O‘quv uslubiy qo‘llanma,-T.: “Iqtisod-moliya”, 2018 y
23. Jo‘rayev A. S. Soliq nazariyasi, - T.: “Iqtisod-moliya”, 2018 y
24. Farida I. B. Soliq huquqi, - T.: “Toshkent”, 2016 y
25. Deutchbank: Risk management. 2017
26. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
27. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
28. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi sayti
29. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti